

*Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining
2024-yil 25-sentabrdagi 125-sonli
buyrug‘iga ilova*

“Biz oilaviy zo‘ravonlikka qarshimiz” mavzusida ijtimoiy roliklar tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida

N I Z O M

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom **“Biz oilaviy zo‘ravonlikka qarshimiz”** mazusidagi ijtimoiy roliklar tanlovini (keyingi o‘rinlarda-tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti, Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Madaniyat vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tanlov tashkilotchilari hisoblanadi.

3. Tanlovda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shu bilan birga, mamlakat hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, xorijiy davlatlar fuqarolari (mualliflar-jismoniy shaxslar, ijodiy jamoalar yoki tashkilotlar) ishtirok etishlari mumkin.

4. **“Biz oilaviy zo‘ravonlikka qarshimiz”** mavzusidagi ijtimoiy roliklar tanlovida quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etadi:

aholi o‘rtasida oilaviy zo‘ravonliklarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish;

oilalarda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni qaror toptirish maqsadida oilada xotin-qizlarni ularga nisbatan oilaning boshqa a’zolari, ya’ni yaqin qarindoshlari tomonidan zo‘ravonlikka uchrashini oldini olish;

oilada xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni zo‘ravonlikning turli shakllaridan (jismoniy, ruhiy, jinsiy va boshqalar) himoya qilish

“Biz oilaviy zo‘ravonlikka qarshimiz” mavzusida ijtimoiy roliklar:

Oilaviy zo‘ravonlik hamda buning uchun belgilangan javobgarlik turlaridan aholini keng xabardor qilishga qaratilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan videoroliklar;

Oilada xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini mensimaslik, ularga nisbatan g‘ayriinsoniy munosabatda bo‘lishning salbiy oqibatlarini targ‘ib qilish;

Oilada xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllariga barham berish maqsadida oilada huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini tashkil etish;

Oilada xotin-qizlarning mulkiy munosabatlarda ishtirok etish huquqi, ta’lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, qonun bilan himoya qilinadigan boshqa hayotiy ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha huquqlarini himoya qilish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

Oilada xotin-qizlarni sha’ni, qadr-qimmatini kamsitish, tahqirlash, ularni yaqin qarindoshlari bilan munosabatlarini cheklash kabi g‘ayriqonuniy harakatlarni qoralash, buning javobgarlik muqarrar ekanligini tushuntirishga qaratilgan targ‘ibotlarni o‘zida aks ettiradi

5. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish ijodiy guruh (ilova qilinadi) zimmasiga yuklatiladi.

Ijodiy guruhning **asosiy vazifalari** quyidagilar hisoblanadi:

tanlovni yuqori darajada tashkil etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilash;

tanlov doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarni muvofiqlashtirish;

tanloving hakamlar hay’ati tarkibini shakllantirish, uning faoliyatini muvofiqlashtirish;

tanlovni yuqori darajada tashkil etilishini ta’minalash;

ushbu nizomga muvofiq g‘oliblarni taqdirlash va rag‘batlantirish.

6. Tanlovda qatnashish uchun ariza va materiallar elektron manzilga o‘zbek va qoraqalpoq tillarida qabul qilinadi.

7. 2024 yil 1 oktabr (soat 09:00 dan) kunidan tanlov uchun arizalarni qabul qilish boshlanadi. Tanlov uchun arizalar qabuli 2024 yil 30 oktabrda (soat 18:00 da) yakunlanadi.

Belgilangan muddatdan kechiktirib taqdim etilgan arizalar ko‘rib chiqilmaydi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

8. **Tanlovning maqsadi-** xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni oilaviy zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, mazkur jarayonlarga jamoatchilikni keng jalb etish.

9. Tanlovning vazifalari:

jamiyatda va oilada xotin-qizlarning o‘rni va mavqeyini mustahkamlash;

xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish;

oilada sodir etiladigan zo‘ravonliklar uchun belgilangan javobgarliklar haqida aholini keng xabardor qilish;

oilaviy zo‘ravonliklarni oldini olishda keng jamoatchilikni, OAV vakillarini faol ishtirokini ta’minalash;

oilalarda huquqiy madaniyatni oshirish, o‘zaro hurmat va sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirish;

Oilalarda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni qaror toptirish, oilalarning mustahkamligini ta’minlash, ularda huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish.

III. Tanlovni o‘tkazish tartibi

10. Tanlov quyidagi ketma-ketlikdagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:
 - a) Tanlovni o‘tkazish haqida e’lon berish;
 - b) Tanlov hakamlar hay’ati tarkibini shakllantirish va tasdiqlash;
 - v) Tanlovda ishtirok etishni xohlagan fuqarolardan ariza va hujjatlarni qabul qilish;
 - g) Tanlov ishtirokchilaridan kelib tushgan ariza va hujjatlarni mazkur nizom talablariga mosligini baholash;
 - d) Hakamlar hay’ati tomonidan g‘oliblarni aniqlash;
 - ye) Tanlov tashkilotchilari tomonidan g‘oliblarni taqdirlash.

IV. Tanlov Hakamlar hay’ati

11. Tanlovga topshirilgan ijtimoiy roliklar ijodiy guruh tomonidan shakllantiriladigan hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

12. Hakamlar hay’ati kollegial organ hisoblanib, kelishuvga asosan, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi vakillaridan kamida 7 kishidan iborat tarkibda tashkil topadi.

13. Hakamlar xay’atining tarkibi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

14. Hakamlar xay’ati tanlov ishtirokchilari tomonidan topshirilgan ijtimoiy roliklarni baholash, tanlov jarayonida to‘plangan hujjatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha ish olib boradi.

15. Hakamlar hay’ati nomzodlarning ijtimoiy roliklarini baholash yoki ularni ko‘rib chiqmasdan qoldirish, g‘oliblarni aniqlash haqida va boshqa qarorlarni qabul qiladi.

16. Hakamlar hay’ati a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda qaror qabul qilishga vakolatli hisoblanadi.

V. Tanlov ishtirokchilarini ro‘yxatga olish va ijtimoiy roliklarga qo‘yiladigan talablar

17. Tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan mazkur nizomga ilovaga muvofiq namunadagi arizani to‘ldirib, ijodiy ish bilan birgalikda jo‘natish lozim.

18. Tanlovga topshirilgan ijtimoiy roliklar quyidagi mezonlarga muvofiq ko‘rib chiqiladi:

- ijtimoiy rolikning e’lon qilingan mavzu va texnik talablarga muvofiqligi;
- ko‘chirilmaganligi (plagiat);

g‘oyasining originalligi va ishning sifati.

Tanlovga topshirilgan ijtimoiy roliklar odob-ahloq qoidalari va qonunchilik me’yorlariga zid bo‘lgan, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi har qanday jumlalar, so‘zlar, tasvirlardan holi bo‘lishi lozim.

19. Tanlovga topshiriladigan ijtimoiy roliklar quyidagi formatda bo‘lishi lozim:

avi, mpeg 4, o‘lchami – 1920×1080 piksel, davomiyligi-180 soniyadan oshmasligi, ovozi (audio) – 16 bit, stereo.

Ijtimoiy rolikni ijodiy guruh va Hakamlar hay’ati yuklab olishi uchun albatta fayl almashuv saytiga yuklangan bo‘lishi lozim.

Tanlov uchun elektron pochta orqali jo‘natilayotgan arizada ijtimoiy rolik joylangan manzil (havola) aniq ko‘rsatilishi lozim.

20. Ijtimoiy roliklar lavhalar ketma-ketligiga moslangan subtitr va mualliflik nomi bilan taqdim etilishi lozim.

Tanlovga taqdim etilgan ijtimoiy roliklar o‘zbek va qoraqalpoq tillarida bo‘lishi mumkin.

Muallif yoki hammualliflarning 3 tadan ortiq ishlari tanlovga qabul qilinmaydi.

Agar hammualliflikda tayyorlangan ijtimoiy rolik tanlovga topshirilsa, bu haqida ariza berishdan oldin boshqa mualliflar xabardor qilinishi lozim. Mualliflik huquqi to‘g‘risida nizo yuzaga kelgan taqdirda, tanlov tashkilotchilari javobgar bo‘lmaydi.

21. Tanlovga taqdim etilgan ijtimoiy roliklar elektron ko‘rinishda elektron pochta orqali taqdim etilishi lozim.

Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan ijtimoiy roliklar bo‘yicha izoh yoki sharh berilmaydi va ular egalariga qaytarilmaydi.

Tashkilotchilar tanlov materiallaridan keyinchalik ham foydalanish huquqini o‘zlarida saqlab qoladi.

Tanlovga ilmiy ishlar, seminarlar, treninglar, anjumanlar, davra suhbatlari uchun tayyorlangan ma’ruzalar, tahliliy materiallar qabul qilinmaydi.

22. Hakamlar hay’ati tanlovga topshirilgan roliklarni quyidagi mezonlar bo‘yicha baholaydi:

dolzarbligi (mavzuni tanlash, mazmunida aniq muammoli vaziyat aks ettirilgani va muammoning tub mohiyati ochib berilgani);

holislik (taqdim etilgan ijtimoiy rolikda xolislik muvozanatiga rioya qilingani);

natijadorlik (ijtimoiy rolikning ijtimoiy rezonansni yuzaga keltirgani, ko‘tarilgan muammoning ommaviy muhokama etilgani, muammoga nisbatan mansabdor shaxslarning yoki davlat tashkilotlarining munosabat bildirgani);

ommaviylik (ijtimoiy rolikning sodda uslubda, keng jamoatchilik auditoriyasi uchun tushunarli, oson tilda yozilgani);

ijodiy o‘ziga xoslik mavjudligi (mavzuni yoritishda, uni taqdim etishda, mazmunida o‘zgacha yondashuvning, g‘oya betakrorligining mavjudligi);

ifoda vositalaridan keng foydalanganlik (ommaviy axborot vositalarining turli yo‘nalishlariga xos bo‘lgan barcha ifoda vositalari (fotosuratlar, audio, video, infografika va h.k.lardan) o‘z o‘rnida professional tarzda foydalanilgani.

VI. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

23. Tanlov g‘oliblari va sovrindorlari haqidagi ma’lumotlar Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining rasmiy veb-saytlarida e’lon qilinadi. Shuningdek, g‘oliblar telefon yoki elektron manzil orqali shaxsan xabardor qilinadi.

24. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Tanlovda 1 ta birinchi o‘rin, 1 ta ikkinchi o‘rin, 1 ta uchinchi o‘rinlar mavjud bo‘lib, g‘oliblar quyidagicha pul mablag‘lari bilan taqdirlanadi:

- 1 ta 1-o‘rin 20 mln. so‘m.
- 2 ta 2-o‘rin 15 mln. so‘mdan.
- 3 ta 3-o‘rin 10 mln.so‘mdan.

VII. Yakuniy qoidalar

25. Tanlovga material taqdim etgan har bir ishtirokchi o‘z materialining mualliflik huquqi egasi ekanligini kafolatlashi va uchinchi shaxslarning intellektual huquqlarini buzmasligini tasdiqlashi shart.

Materiallarda uchinchi shaxslarning intellektual huquqlari ob’ektlaridan foydalanilgan taqdirda, ishtirokchi mualliflarni ko‘rsatishi va ishtirokchining ushbu intellektual huquq ob’ektidan foydalanish huquqiga ega ekanligini tasdiqlashi shart.

Uchinchi shaxslarning intellektual huquqlarini buzganligi uchun tanlov ishtirokchilari amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘ladi.

26. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan materiallar uchinchi tomonlarning intellektual huquqlarini buzgan bo‘lsa, ushbu holat yuzasidan tanlov tashkilotchilari javobgar hisoblanmaydi.

27. Tanlov ishtirokchilari tashkilotchilarga taqdim etilgan materiallarni tahrir qilish, sharhlar va tushuntirishlar berish, muallif haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatgan holda foydalanishga ruxsat beradi.

28. Tashkilotchilar tanlov materiallaridan quyidagi shakllarda (ijtimoiy reklama sifatida) foydalanishi mumkin:

Ommaviy axborot vositalarida, internet platformasida, ijtimoiy tarmoqlarda, ko‘rgazmalar, forumlar va boshqa tadbirlar doirasida.

Tashkilotchi tanlov materiallaridan foydalanganligi to‘g‘risida hisobotlar taqdim etish majburiyatini olmaydi.

29. Tanlov ijodiy guruhi quyidagi huquqlarga ega:

materiallarning mavzuga mosligini aniqlash;

materiallar tanlov nizomi talablariga to‘g‘ri kelmagan taqdirda, materiallarni tanlovdan chetlatish;

ayrim materiallarni yanada xolisroq baholash uchun Hakamlar hay’ati a’zolaridan tashqari soha mutaxassislarini jalb qilish.

30. Tanlovni o‘tkazish va uning g‘oliblarini taqdirlash bilan bog‘liq barcha xarajatlar Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

“Biz oilaviy zo‘ravonlikka qarshimiz”
mavzusidagi ijtimoiy roliklar
tanlovini tashkil etish va o‘tkazish
to‘g‘risidagi Nizomga ilova

“Biz oilaviy zo‘ravonlikka qarshimiz” ijtimoiy roliklar tanlovida
ishtirok etuvchilar uchun
Ariza shakli

F.I.Sh.		Foto
Tug‘ilgan yili va sanasi		
Yashash manzili		
O‘qish/ish joyi (faoliyat turi)		
Taqdim etilayotgan ijtimoiy rolik mavzusi		
Tanlovga taqdim etilayotgan matearillar ro‘yxati va elektron fayllarning joylangan manzili (havola) (nashrlar fayloobmennik)		
Aloqa (telefon raqami kodi bilan)		